ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Ganiyev	4	Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish: jamoatchilik fikri asosida empirik tahlil
M. Pardayeva	13	Yangi o'quv yilining dastlabki 30 kunida maktab boshqaruvi: strategik ustuvorliklar va boshqaruv amaliyotining diagnostik tahlili
A. Xolmurodov	22	Pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish: muammolar, huquqiy asoslar va istiqboldagi yo'nalishlar (Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi misolida)
X. Nurmetov	26	Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari
U. Xasanov	30	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
U. Toxirov	33	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda "PBL" va "Sun'iy intellekt" vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik muammolari va ularning yechimlari
D. Kamoljonova	38	Mutolaa sotsiometrik munosabatlarni shakllantiruvchi madaniy vosita sifatida
B. A'zamov	42	Multimedia texnologiyalari orqali talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish
R. Quziyev	46	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
D. Mo'ydinova	50	Talabalarda shaxsiy e'tiqodini shakllantirish texnologiyasi
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Z. Taxirov	53	Uslubiyatning fonetik vositalari
D. Il'yasova	58	Bolalar adabiyoti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
N. Kamolova	61	Kimyo ta'limida o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
M. Kenjayeva	70	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari
D. Sadikov	74	Organik kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Sayidova	79	Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologik ta'lim mazmunida ilg'or texnologiyalarning aks etishi
J. Buriyev	83	Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish
U. Toxirov	86	Oliy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim (pbl) texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini integratsiyalashning pedagogik salohiyati

N. Temirov, X. Sirojiddinova	91	O‘quv jarayonini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish
		TA’LIMDA MENEJMET
Q. Almardanov	94	Maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish jarayonlarini optimallashtirish
		TA’LIMDA IQTISODIOT VA MOLIYALASHTIRISH
N. Boymuradov	103	Maktabgacha ta’lim tashkilotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy boshqaruv modeli
A. Boltaev	109	Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarish
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
N. Dushayeva	115	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik etikani shakillantirish vositalari va shartlari
		PSIXOLOGIYA
X. Toshturdieva	119	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini deontologik qobiliyatlarini shakllantirishning hozirgi holati
M. Muzaffarova	127	Raqamli jamiyat sharoitida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining raqamli sotsializatsiyasi va ota-onalik kompetentligining psixologik-pedagogik determinantlari
D. Adilova	131	Jamoadagi konfliktlarni boshqarish va ularni konstruktiv murosaga olib kelishning zamonaviy mexanizmlari
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
D. Zayniddinova	135	Markaziy osiyoda suv resurslari muammosi va barqaror boshqaruv strategiyalari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
D. Xoliqulova	138	Mehrli maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi

Normurod BOYMURADOV,
Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, mustaqil izlanuvchi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV MODELI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi boshqaruv faoliyati zamonaviy ta’lim menejmenti nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruvning raqamlashtirilishi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashuvi hamda tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligi ortib borayotgan sharoitda direktorlarning moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish, moliyaviy risklarni boshqarish hamda ichki nazorat tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, ta’lim menejmenti, direktor, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy boshqaruv, strategik boshqaruv, moliyaviy monitoring, budjet boshqaruvi, risklarni boshqarish, raqamli boshqaruv, ERP tizimi, KPI, ta’lim sifati, investitsion jozibadorlik, grant.

В статье научно-теоретически и практически исследована управленческая деятельность директоров дошкольных образовательных организаций в обеспечении финансовой устойчивости с точки зрения современного менеджмента образования. Обоснована необходимость развития компетенций директоров по финансовому управлению в условиях модернизации системы образования, цифровизации управления, диверсификации источников финансирования и повышения финансовой самостоятельности организаций. В исследовании проанализированы внутренние и внешние факторы, влияющие на финансовую устойчивость дошкольных образовательных организаций, освещены приоритетные направления эффективного управления финансовыми ресурсами, рационального использования бюджетных средств, привлечения внебюджетных средств, управления финансовыми рисками и совершенствования системы внутреннего контроля.

Ключевые слова. Дошкольное образование, менеджмент образования, директор, финансовая устойчивость, финансовое управление, стратегическое управление, финансовый мониторинг, управление бюджетом, управление рисками, цифровое управление, система ERP, KPI, качество образования, инвестиционная привлекательность, грант.

The article examines the managerial activities of preschool education directors in ensuring financial stability from the perspective of modern educational management from a scientific-theoretical and practical perspective. The necessity of developing the financial management competencies of directors in the context of modernizing the education system, digitalizing management, diversifying funding sources, and increasing the financial independence of organizations is substantiated. The study analyzes internal and external factors affecting the financial stability of preschool educational organizations, highlights priority areas for effective financial resource management, the rational use of budget funds, the attraction of extra-budgetary funds, financial risk management, and the improvement of the internal control system.

Key words. Preschool education, educational management, director, financial stability, financial management, strategic management, financial monitoring, budget management, risk management, digital management, ERP system, KPIs, quality of education, investment attractiveness, grant.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy barqarorligiga bog‘liq. Moliyaviy barqarorlik nafaqat tashkilotning joriy faoliyatini uzluksiz amalga oshirish, balki ta’lim sifati, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, pedagoglarni rag‘batlantirish hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Bugungi kunda direktor faoliyati faqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish bilan chegaralanmaydi. U moliyaviy menejer, strateg, risklarni boshqaruvchi va resurslarni samarali taqsimlovchi rahbar sifatida ham faoliyat yuritishi zarur.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida moliyalashtirish mexanizmlarining diversifikatsiya qilinishi, davlat-xususiy sheriklikning rivojlanishi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi hamda tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligining ortishi direktorlarning moliyaviy boshqaruv kompetensiyalariga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, kontent tahlili, SWOT tahlil, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, modellashtirish ilmiy metodlardan foydalaniladi.

Moliyaviy barqarorlik – tashkilotning mavjud moliyaviy resurslari hisobiga o‘z faoliyatini uzluksiz davom ettirish, rivojlantirish va tashqi iqtisodiy omillar ta’siriga bardosh bera olish qobiliyatidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy barqarorlik daromadlar barqarorligi, xarajatlarning oqilona boshqarilishi, likvidlik, investitsion salohiyat, moliyaviy xavfsizlik, risklarni boshqarish, shaffoflik, hisobdorlik kabi komponentlardan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida direktor quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi: strategik rejalashtirish, moliyaviy rejalashtirish, budjetni shakllantirish, xarajatlarni optimallashtirish, davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, homiylik mablag‘larini jalb qilish, grantlarni boshqarish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish, moliyaviy monitoring, ichki auditni tashkil etish, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar:

Ichki omillar:

– direktorning moliyaviy savodxonligi;
– boshqaruv sifati;
– strategik rejalashtirish;
– resurslardan foydalanish samaradorligi;
– ichki nazorat;
– inson resurslarini boshqarish.

Tashqi omillar:

– davlat siyosati;
– inflyatsiya;
– iqtisodiy vaziyat;
– normativ-huquqiy baza;
– davlat subsidiyalari;
– xususiy sektor bilan hamkorlik.

Moliyaviy boshqaruv modeli 5 ta blokdan iborat.

1-blok. Strategik boshqaruv

Rivojlanish strategiyasi – bu tashkilot yoki tizimning uzoq muddatli raqobatbar-

doshligini, samaradorligini va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun maqsadlar, ustuvor yo‘nalishlar, resurslar va boshqaruv mexanizmlarini belgilovchi strategik boshqaruv hujjatidir.

Moliyaviy prognoz – bu tashkilotning kelajakdagi moliyaviy holati, daromadlari, xarajatlari, pul oqimlari va moliyaviy natijalarini iqtisodiy omillar, statistik ma’lumotlar hamda rivojlanish ssenariylari asosida oldindan baholash va rejalashtirish jarayonidir.

KPI tizimi – bu tashkilotning strategik maqsadlariga erishish darajasini baholash uchun asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash, o‘lchash, monitoring qilish va tahlil etishga asoslangan boshqaruv vositasidir. KPI strategik rejalashtirishni kundalik faoliyat bilan bog‘laydi va natijalarni obyektiv baholash imkonini beradi.

2-blok. Resurslarni boshqarish

Budjet – bu ma’lum bir davr uchun daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanishni nazorat qilishga xizmat qiluvchi moliyaviy boshqaruv hujjatidir.

Homiylik – bu jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan ijtimoiy, ta’limiy, madaniy, sport yoki boshqa foydali faoliyatni rivojlantirish maqsadida moliyaviy, moddiy yoki xizmat ko‘rinishida ixtiyoriy qo‘llab-quvvatlashni anglatadigan iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik shaklidir.

Grant – bu donor tashkilot tomonidan belgilangan maqsad va shartlar asosida ilmiy, ta’limiy, innovatsion yoki ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun qaytarib berish talabi qo‘yilmaydigan mablag‘ yoki boshqa resursdir.

Qo‘shimcha xizmat – bu tashkilotning asosiy faoliyatini to‘ldiruvchi, iste’molchilarning qo‘shimcha ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hamda amaldagi qonunchilik va ichki tartiblar asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasidir.

3-blok. Raqamli boshqaruv

ERP (Enterprise Resource Planning) – bu tashkilotning moliyaviy, moddiy, inson resurslari va boshqa biznes jarayonlarini yagona axborot platformasida rejalashtirish, boshqarish, integratsiyalash va nazorat qilishni ta’minlaydigan kompleks axborot tizimidir.

Elektron buxgalteriya – bu buxgalteriya hisobi, moliyaviy operatsiyalarni qayd etish, qayta ishlash, saqlash va hisobotlarni tayyorlash jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtiruvchi raqamli hisob tizimidir.

BI Dashboard (Business Intelligence Dashboard) – bu turli axborot tizimlaridan olingan ma’lumotlarni integratsiyalash, tahlil qilish va ularni interaktiv grafik, diagramma hamda KPI ko‘rsatkichlari orqali vizuallashtirishga xizmat qiladigan boshqaruv vositasidir.

Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash – bu mashinali o‘qitish, neyron tarmoqlar va boshqa sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda tarixiy va joriy ma’lumotlarni tahlil qilish hamda kelajakdagi holat yoki natijalarni yuqori aniqlik bilan bashorat qilishga qaratilgan intellektual tahlil usulidir.

4-blok. Monitoring

Moliyaviy indikatorlar – bu tashkilotning moliyaviy faoliyati natijalarini, resurslardan foydalanish samaradorligini, moliyaviy barqarorligini va rivojlanish dinamikasini baholash uchun qo‘llaniladigan miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimidir.

Ichki nazorat – bu tashkilotning strategik va operatsion maqsadlariga erishish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish uchun joriy etilgan boshqaruv

siyosati, tartib-taomillar va nazorat mexanizmlari tizimidir.

Risk monitoring – bu tashkilot faoliyatiga ta’sir etuvchi risklarni muntazam kuzatish, ularning darajasini baholash, o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda xavflarni kamaytirish bo‘yicha boshqaruv choralarini o‘z vaqtida amalga oshirishga qaratilgan uzluksiz boshqaruv jarayonidir.

5-blok. Natijadorlik

Ta’lim sifati – bu ta’lim jarayoni, uning shart-sharoitlari, boshqaruvi va natijalari belgilangan standartlar hamda ta’lim oluvchilar, ota-onalar, jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkichdir.

Barqarorlik – bu tashkilot yoki tizimning ichki va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarga moslasha olishi, resurslardan samarali foydalanishi hamda uzoq muddat davomida o‘z maqsadlariga erishish qobiliyatini ifodalovchi kompleks xususiyatdir. (Moliyaviy, ijtimoiy, tashkiliy va ta’lim sifati barqarorligi)

Investitsion jozibadorlik – bu tashkilot yoki loyihaning moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari majmui asosida investor uchun mablag‘ kiritishning maqsadga muvofiqligi, xavfsizligi va kutilayotgan samaradorligini ifodalovchi kompleks bahodir.

Ota-onalar ishonchi – bu ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi, xavfsizlikni ta’minlash, shaffoflik va pedagogik faoliyatiga nisbatan shakllangan ijobiy ishonch va qoniqish darajasini ifodalovchi ijtimoiy ko‘rsatkichdir.

Moliyaviy barqarorlikni baholash indikatorlari

Ko‘rsatkich	***Mazmuni***
Budjet ijrosi	Reja va amaldagi xarajatlar farqi
Xarajatlar samaradorligi	1 nafar tarbiyalanuvchi uchun xarajat
Qo‘shimcha daromad ulushi	Budjetdan tashqari tushumlar
Likvidlik koeffitsienti	Joriy majburiyatlarni qoplash imkoniyati
Grantlar soni	Jalb etilgan loyiha mablag‘lari
Homiylik mablag‘lari	Xususiy sektor hissasi
Risklar soni	Aniqlangan moliyaviy xavflar
Audit natijalari	Moliyaviy intizom darajasi

Rivojlangan xorijiy davlatlardan Singapur maktabgacha ta’lim tizimini moliyaviy tomonini tahlil qilsak, shu ko‘rish mumkinki, Singapur dunyoda ta'lim sifati va samarali boshqaruv tizimi bilan ajralib turadigan davlatlardan biridir. Mamlakatning ta’lim sohasidagi muvaffaqiyati nafaqat zamonaviy pedagogik yondashuvlar, balki moliyaviy boshqaruvning samarali tashkil etilgani bilan ham izohlanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish hamda rahbarlarning moliyaviy kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Singapur ta'lim tizimining muhim xususiyatlaridan biri – ta’lim muassasalariga ma’lum darajada moliyaviy mustaqillik berilganidir. Davlat umumiy moliyalashtirish siyosatini belgilaydi, biroq muassasa rahbarlari ajratilgan mablag‘larni amaldagi me’yoriy hujjatlar doirasida o‘z ehtiyojlariga mos ravishda taqsimlash imkoniyatiga ega.

Bunday avtonom boshqaruv rahbarlarga ta’lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, pedagoglarni rag‘batlantirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, har

bir moliyaviy qaror shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Avtonom moliyaviy boshqaruv tizimi resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytiradi, ortiqcha xarajatlarning oldini oladi hamda tashkilotning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Singapur ta'lim tizimida raqamli boshqaruv keng qo‘llaniladi. Xususan, ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari moliyaviy, ma’muriy va kadrlar bilan bog‘liq jarayonlarni yagona axborot platformasida boshqarishga xizmat qiladi.

ERP tizimi orqali:

• budjet rejalashtiriladi;

• xarajatlar real vaqt rejimida nazorat qilinadi;

• xaridlar elektron tarzda boshqariladi;

• ish haqi va moliyaviy hisobotlar avtomatlashtiriladi;

• direktor uchun tezkor tahliliy ma’lumotlar shakllantiriladi.

Natijada inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolar kamayadi, moliyaviy shaffoflik oshadi va boshqaruv qarorlari ishonchli ma’lumotlarga asoslanadi.

Bugungi kunda ERP tizimlari sun’iy intellekt, Business Intelligence (BI) Dashboard va elektron buxgalteriya tizimlari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa rahbarlarga moliyaviy holatni real vaqt rejimida kuzatish va xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Singapur ta'lim tizimining yana bir muhim jihati – natijaga asoslangan moliyalashtirish tamoyilidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, moliyaviy resurslar faqat sarflangan mablag‘ hajmiga emas, balki erishilgan natijalarga ham bog'liq ravishda rejalashtiriladi va baholanadi.

Baholashda quyidagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega:

• ta'lim sifati;

• bolalarning rivojlanish natijalari;

• ota-onalar qoniqishi;

• pedagoglarning kasbiy rivojlanishi;

• moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi;

• innovatsion loyihalarni amalga oshirish natijalari.

Bunday tizim rahbarlarni mavjud mablag‘lardan maksimal samaradorlik bilan foydalanishga undaydi va moliyalashtirishni ta’lim natijalari bilan bog‘laydi.

Singapurda maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari lavozimga tayinlanishdan oldin va faoliyati davomida muntazam kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etadilar. Ushbu dasturlarda moliyaviy boshqaruv alohida yo‘nalish sifatida o‘rganiladi.

Rahbarlar quyidagi kompetensiyalarni egallaydi:

• strategik moliyaviy rejalashtirish;

• budjet tuzish va ijrosini nazorat qilish;

• moliyaviy risklarni boshqarish;

• davlat xaridlari va shartnomalar bilan ishlash;

• ichki nazorat va audit asoslari;

• KPI va moliyaviy indikatorlardan foydalanish;

• ERP va boshqa raqamli boshqaruv tizimlari bilan ishlash.

Malaka oshirish yakunida rahbarlarning bilim va ko‘nikmalari baholanadi hamda ular tegishli sertifikatlar bilan tasdiqlanadi. Bu esa rahbarlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, boshqaruv sifatini yaxshilash va ta’lim muassasalarining moliyaviy

barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining moliyaviy barqarorligi direktorning boshqaruv salohiyati bilan bevosita bog‘liq. Zamonaviy rahbar moliyaviy savodxon, strategik fikrlovchi, raqamli texnologiyalarni qo‘llay oladigan va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydigan menejer bo‘lishi zarur. Tadqiqot natijalari direktorlarning moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, xalqaro tajribaga tayanish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash orqali maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. Education at a Glance. Paris: OECD Publishing.
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report.
3. World Bank. Education Finance Watch.
4. IFAC. International Public Sector Accounting Standards.
5. Drucker P. F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices.
6. Kaplan R. S., & Norton D. P. The Balanced Scorecard.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.
9. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
10. Maktabgacha ta’lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.